

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«Kimyo-texnologiya» fakulteti  
«Kimyoviy texnologiya» kafedrası

«Himoyaga ruhsat etildi»

Fakultet dekani

\_\_\_\_\_ t.f.n., dots. A.Mamaxonov

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 yil,

5320400 – Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha)  
bakalavriatura ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

**Otamirzayev Kozimjon Kotibjon o'g'li**

Rezina transportyor lentalarini olish bo'limini loyixalash (ishlab chiqarish quvvati  
2200 pogona m/yil)

**DIPLOM LOYIHA ISHI**

Bitiruvchi:

K.K. Otamirzayev

DLI rahbari:

k.f.n. dots. O.K.Ergashev

Kafedra mudiri:

t.f.n.dots. D.Sherqo`ziyev

Namangan-2018

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	<b>3</b>
<b>I .Texnologik qism</b> .....	<b>8</b>
1.1. Hom-ashyo va materialning tasnifi.....	10
1.2. Maxsulot olishning texnologik jarayonini nazariy kimyoviy, fizikaviy- kimyoviy, texnologik asoslari.....	20
1.3. Texnologik jarayonning asosiy tasnifi va parametrlari .....	27
1.4. Hom-ashyo va materialning sarf balansi.....	33
1.5. Texnologik jarayonda asosiy uskuna va jixozini tanlash va uning issiqlik balansini xisoblash.....	40
<b>II. Ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish</b> .....	<b>50</b>
<b>III. Iqtisodiy qism</b> .....	<b>55</b>
<b>IV. Mexnat muxofazasi va atrof muxitni muxofaza qilish</b> .....	<b>61</b>
4.1 Texnika xavfsizligi.....	64
<b>Xulosa</b> .....	<b>66</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	<b>67</b>

## Kirish

Hozirda rezina sanoati Respublikamiz xalq xo'jaligida muxim ro'l o'ynaydi. Ko'pgina yirik ishlab chiqarish sohalari, mashinasozlik, oziq-ovqat va boshqalar turli xil rezina texnik buyumlarga extiyoji yuqori. Rezina sanoati o'ziga xos o'tmishga ega. Rezina texnik buyumlar ishlab chiqaruvchi rezina texnika dastlab korxonasi respublikamizda 1972 yilda tashkil topgan. Hozirgi kunga kelib bu soxaga ixtisoslashgan qator korxonalar, jumladan OOO "Kafolat-rezina", OOO "Rubber technical products", MP "Elastomer-plastik", CHMF "El-mobil", "Katron", "Uzshina tamirlash" AK va boshqa korxonalar rezina texnika buyumla ishlab chiqarmoqda.

Shunga ko'ra xukumatimiz tegishli korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida qator qarorlar qabul qilganlar. Bular jumlasiga:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentning PF-1442 son 15.12.2010 y.

O'zbekiston Respublikasi sanoatining rivojlantirish yo'llari 2011-2015 yillarda farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti 4.10.2011 y. PF-1623-son. Ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatbardosh mahsulot turini ko'paytirishni yo'lga qo'yishning kechiktrib bo'lmas chora tadbirlari haqida farmoni;

3. O'zbekiston Respublikasi prezidentning 27.12.2011 y. PF 1668-son 2012 yilda O'zbekiston Respublikasining investitsion dasturi xaqidagi farmonlarni keltrishimiz mumkin.

Respublikamiz iqtisodiyotining chet el kompaniyalari uchun taklif qilinadigan ustunliklari orsida siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiyot suratini 108% o'sganligi, maqul tabiy va iqlim sharoiti, aholining o'sish va qulay geografik joylashuv ya'ni respublikamizni markaziy osiyo va buyuk Ipak yo'lining

markazida joylashganligi. Yuqorida keltirilgan omillar rezina-texnik buyumlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan korxonalar va sevlarni yaratishga asos bo'ladi.

**Mavzuni dolzarbligi:** Rezina sanoati asosiy hom ashyosi kauchuk bo'lgan, tayyor mahsuloti rezina buyumlari bo'lgan korxonalarni egalladi. Rezina buyumlari assortimenti nihoyatda keng va doim o'sib boradi; hozirda u 60 ming tadan ortiq nomlardan oshadi. Rezina buyumlari turmish tarzimizda juda keng qo'llaniladi. Rezina buyumlarini asosiy hajmi (80% dan yuqori) apparatlar, mashinalar va konstruksiyalar detallar ko'rinishida chiqaziladi. Bular orasida avvalo 1-shinalarni aytish kerak. Ishlab chiqarish hajmi bo'yicha (lekin assortimenti bo'yicha emas) 2-chi o'rinni turli rezinali texnik buyumlar egallaydi. Bularga transportyor lenta, korxonalar rementlari, yenglari, turli mashinalar, apparatlarni va konstruksiyalarni toza rezina, rezinatekstil va rezinametal detallari, rezinali texnik matolar, ulardan buyumlar, shuningdek alohida bo'lmagan muxandis obyektlari: lodkalar, plotlar (solar) antonlar va boshqalar kiradi. Nihoyat 3-chi o'rinni rezina oyoq kiyim ro'zg'or buyumlari va sangigena buyumlari: bu yerga yana kauchuk qo'llagan holda tayyorlanadigan asbobtexnik buyumlarni ham kiritish kerak, turli mashinalar uchun tarmoq nakladkalar stiplennani fratsion disklari, prokladkalar, uplonitellar (zichlashtiruvchilar, zichlikni oshiruvchi moddalar) va boshqalar egallaydi.

Barkamol avlod haqida so'z borganda o'tgan yillar davomida katta kuch va mablag' xisobida malum soxaga barpo etilgan moddiy-texnik bazadan oqilona va samarali foydalanish masalasi qanchalik muxim ekani barchamizga ayon bo'lishi kerak deb o'ylayman.

Shular qatorida davlat talim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish oliy va o'rta maxsus talim tizimida malum yo'nalishlari va mutaxxasislarini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish zarur.

Shuningdek o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish bolalarimizni komil inson qilib tarbiyalashda jonbozlik

ko'rsatadigan o'qituvchi va domlarga etiborimizni yanada oshirish qisqacha aytganda talim-tarbiya tizimini sifat jixatidan butunlay yangi bosqichga chiqarish diqqatimiz markazida bo'lishi darkor. Takror aytishga to'g'ri keladi malim soxada zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng foydalanish telekommunikatsiyalarining zamonaviy usullarini o'zlashtirish bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg'or yutuqlar nafaqat maktab, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlari balki har qaysi oila xayotiga keng kirib borishi uchun zamin tug'dirishning ahamiyatini chuqur anglab olishimiz zarur.

Oldimizda turgan yana muxim masalaga diqqatingizni qaratishingizni lozim deb bilaman. Hammamiz yaxshi tushunamizki bugubgi kunda taraqqiyot haqida so'z borganda ilm fanning o'rni va ahamiyati haqida ortiqcha gapirishga hojat yo'q albatta. Biz mamlakatimizning kelajagini ko'zda tutgan holda, bugungi kunda taraqqiy topgan davlatlar ilmiy jamiyatchilikning etibor markazida turgan, eng ilg'or istiqbolli ilmiy izlanish va taraqqiyot ishlarini yurtimizda rivojlantirish maqsadida Fanlar akademiyasi va oliy o'quv yurtlari tarkibiga yangi laboratoriyalarni tashkil qilish ularning rivojlangan mamlakatlardagi ilm fan markazlari bilan aloqalar bo'lish shart.

Rezina ko'p komponentli sistema, uni tayyorlash va buyum olish ancha murakkab va ko'p energiya talab qiladigan jarayonlar qatoriga kiradi. Rezina tayyorlash uchun yuqori molekulyar polimerlar qo'llaniladi. Rezina tayyorlashda qo'llaniladigan elastomerlar odatda kauchuklar deb ataladi.

Tabiiy kauchuk geveya, gvayula, koksogiz va boshqa kauchukli o'simliklarning sutsimon shirasidan (lateks) olinadigan yuqori molekulyar elastik moddadir. Janubiy Amerikadagi xindular bu sutsimon shirani kao chau, yani daraxt ko'z yoshi deb ataganlar. Keyinchalik bu moddalarning xossalarini o'rganadigan fransuz olimlari unga kauchuk deb nom berganlar. Kauchuk olinadigan asosiy o'simlik Braziliya geveyasidir. Kauchuk olish uchun daraxtning po'stlog'i kesiladi va undan sutsimon shira ajralib chiqib boshlaydi. Lateks kesilgan joyda mahkamlab qo'yilgan idishga yig'ib olinadi. Sutsimon shira kauchukning suvdagi kolloid

eritmasi bo'lib tarkibida taxminan 35% gacha kauchuk, 55-60% suv, 1-2% oqsil moddalari 1,5-2% smola va 0,5-1% mineral tuzlar bo'ladi. Yig'ib olingansutsimon shiraga ozroq miqdorda sirka yoki chumoli kislata qo'shish bilan kaogulyatsiyaga uchratiladi natijada lateksdagi mayda zarrachalar hamda kauchuk quyuq massa holida ajralib chiqadi. Eritmadan ajratib olingan xom kauchuk quritiladi va oksidlanish hamda mog'orlanishdan saqlash uchun dudlanadi.

Kauchuk suyuqlik va gazlarni o'tkazmaydi, himoyaviy jixatdan barqaror, issiqlik elektr to'kini yaxshi izolyatsiya qiluvchi elastik materialdir. Dunyoda kauchukning barcha xossalarini o'zida mujassamlashtirgan boshqa modda yo'q. 1860-yilda ingliz olimi Vilyam kauchukni quruq haydab olgan moddasini izopren deb nomlagan va uning tarkibi  $C_5H_8$  oradan 22 yil o'tgach Tilden izoprenning struktura formulasini aniqlashda muvaffaq bo'ldi va tabiiy kauchuk bilan izopren o'rtasida bog'lanish borligi aniqlandi. Tabiiy kauchuk molekulyar massasi turlicha (500000-3000000) bo'lgan polimer gomologlari aralashmasi bo'lib uning asosiy massasini molekulyar massani 1000000 dan kattaroq bo'lgan fraktsiyalar tashkil qiladi.

Rezina kompozitsiyadan yani rezina aralashmasidan olinadi ular tarkibida kauchukdan tashqari quyidagi indigirentlar bo'lgan Vulkanlovchi agentlar vulkanlanishi tezlashtiruvchilar bazan esa sekinlashtiruvchilar, to'ldirgichlar, plastifikatorlar, stabilizatorlar. Bazi xollarda bu komponentlardan tashqari yana turli bo'yoqlar plastiklar va xakazolar xam qo'shiladi. Rezina –kompozitsion material ozgina kuch tasirida osonlik bilan deformatsiyalanishi mumkin va o'zini shaklini katta deformatsiyadan so'ng qaytadan tiklash qobilyatiga ega.

1839-yilda Ch.Gud yopishqoq tabiiy kauchuk qizdirilib oltingugurt (8% gacha)

bilan qayta ishlansa yopishmaydigan va elastikligi kauchukdan yuqori bo'lgan maxsulotga aylanishini aniqlagan .Bu jarayon kauchukni vulkanlash deb atalib xosil bo'lgan maxsulot rezina deb ataladi.

Kauchuklar rezinaga aylanishi natijasida ularning makromolekulalari orasida kimyoviy bog' xosil bo'ladi . Bu esa rezinani tashqi tasirlarga chidamliligini yuqori bo'lishiga asosiy omil bo'ladi.

# I .Texnologik qism

## 1.1 Xom-ashyo va materiallar tavsifi

### *Butadien – 1,3.*

$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2$ . 1,3-butadien 1910 yilda dietil efirini parchalab olingan. 1913 yilda 1,3-butadien etil spirtidan va sirka aldegidan olindi. Sanoatda 1,3-butadien etil spirtini katalitik parchalab birinchi marta Lebedev S.V. usuli bo'yicha ishlab chiqarildi. Germaniyada 1,3-butadienni ishlab chiqarishni quyidagi sxema bo'yicha sanoat usuli 1938 yilda o'zlashtirildi.

Atsetilen  $\rightarrow$  atsetaldegid  $\rightarrow$  1,3-butilenglikol  $\rightarrow$  1,3-butadien.

Xozirgi paytda 1,3-butadien tabiiy gazdan va neftning yo'ldosh gazlaridan pirolitik usulda olinmoqda.

Piroliz uchun yengil parafin uglevodorodlari (etan, propan, butan va ularning aralashmalari), quyi oktan sonli benzin fraksiyalari, kerosin-gazoyl va og'irroq o'rta distillyatlar qo'llaniladi. Xom ashyo tarkibi butadienni hosil bo'lish unumini belgilab beradi. Xom ashyo naften uglevodorodlariga boy bo'lsa va parafin uglevodorodlar miqdori kam bo'lsa  $S_4$  uglevodorodlar shu jumladan butadien chiqish unumi yuqori bo'ladi. Piroliz suv bug'ini ishtirokida olib boriladi.  $S_4$  fraksiyaning chiqish unumi va tarkibi pirolizni olib borish sharoitiga ham bog'liq. Piroliz rejimini og'irlashtirish bilan birga va xom ashyoda yuqori uglevodorodlar miqdori ortishi bilan  $S_4$  fraksiyasida butadienni miqdori ortib 45% gacha yetadi.  $S_4$  fraksiya ekstraksiyalab rektifikatsiyalash usuli bilan turli erituvchilar ishtirokida ajratib olinadi.

Butadien butan-butilenlarni oksidlab digidrogenlash usuli bilan ham olib boriladi. Digidrogenlash suv bug'i ishtirokida olib boriladi. Bu katalizatorlarni ishlash vaqtini uzaytiradi, ayrim jarayonlarda katalizatorlar o'z-o'zidan regeneratsiyalanib turadi. Jarayon  $570-600^{\circ}\text{S}$  da suv bug'i va monomerning molyar nisbati 30:1, kislorod va etilenlarni molyar nisbati 0,6:1 va 0,6 MPa bosimda olib



boriladi. Reaktordan soʻng gazlar aralashmasi sovutiladi va fraksiyalarga ajratiladi. Toza butadiyenni ajratib olish oʻziga xos xususiyatlarga ega, sababi reaksiya aralashmada kislorod saqlovchi erituvchilarni miqdorini koʻpligidir.

Butadien ekstraksiyalab rektifikatsiyalash usuli bilan ajratib olinadi. Tozalab olingan maxsulotda butadien miqdori 99,9% boʻladi. Qoʻshimchalar sifatida 0,05% pentadien va 0,035% dan kam karbonil birikmalar boʻladi.

Butadien-1,3 molekulyar massasi 54,1, suyuqlanish harorati -  $-1108,9^{\circ}\text{S}$ , qaynash harorati -  $-4,4^{\circ}\text{S}$ , zichligi  $650 (-6^{\circ}\text{S}) \text{ kg/m}^3$ , sindirish koʻrsatkichi 1,422 ( $-6^{\circ}\text{S}$ ).

«Rezina» — kompozitsion material, oʻzina kuch (nagruzka) taʼsirida osonlik bilan deformatsiyalanishi mumkin va oʻzini shaklini katta deformatsiyadan soʻng qaytadan tiklash qobiliyatiga ega boʻlgan materialdir. Rezina buzilmasdan (uzilmasdan) turib (qoldiq deformatsiyasi deyarli yoʻq boʻlib) 500-1000% nisbiy choʻzilishga egadir. Maʼlumki, poʻlat esa choʻzilish jarayonida oʻzining qayishqoqligini (uprugaya deformatsiya) atiga 1% ni tashkil etadi. Rezinaning bunday xususiyati yuqori elastik xususiyat deb ataladi. Bu koʻrsatkich katta ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, rezinani muhim xarakteristikasi — uning kam qattiqligi. Bu koʻrsatkich uning deformatsiyasi qayishqoqlik xususiyatiga ega boʻlishi har xil valiklar yasashda unga teng keladigan material yoʻqligidan dalolat beradi.

Rezina yuqori ishqalanish koeffitsientiga egadir. Suv va gaz oʻtkazuvchanliligi, agressiv muhit taʼsiriga chidamligi bilan boshqa materiallardan ajralib turadi.

Rezina koʻp komponentli sistema, uni tayyorlash va buyum olish ancha murakkab va koʻp energiya talab qiladigan jarayonlar qatoriga kiradi. Rezina tayyorlash uchun yuqori molekulyar polimerlar qoʻllaniladi. Ulardan shundaylari foydalaniladiki, qattiq (shishasimon, kristall) holatdan yuqori elastik holatga oʻtishida past (uy haroratidan past) haroratni tashkil qilgan boʻlishi kerak. Rezina tayyorlash uchun qoʻllaniladigan elastomerlar odatda **kauchuklar** deb ataladi.

Ko'pincha kauchuklar rezinaga aylanishi natijasida ularning makromolekulalari orasida kimyoviy bog' hosil bo'ladi, ya'ni to'rsimon bog' hosil bo'ladi.

Kauchukdan tashqari rezina olishda har xil qo'shimchalar (ingridientlar) ishlatiladi. Bular kauchuklarni qayta ishlash vaqtida kimyoviy aylanishga olib keladi (plastikligini oshirish, choklash va h.k.) va rezina buyumlarining maxsus xossalarga ega bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ingridientlar (qorishmaning tarkibiy kismi) o'zlarining ta'siri bo'yicha quyidagilarga bo'linadi: vulkanlovchi agentlarga, vulkanizatsiyani tezlashtiruvchi va aktivlovchi, to'ldiruvchilarga, plastifikatlarga va eskirishdan saqllovchilarga, bularga har xil kimyoviy moddalar kiradi. Bularni qiymati kauchukka nisbatan birdan to o'nlab protsentlarni tashkil qiladi.

Fizik-mexanik xossalarini yaxshilash uchun: ishqalanishga chidamliligini, qattiqligini, mustahkamligini va boshqa xossalarini yaxshilash uchun texnik uglerod (saja) kukun holida kam miqdorda qo'shiladi.

Ko'p rezina buyumlar faqat rezinadan bo'lmasdan uning tarkibiga tekstil va metall armirlovchi materiallar kiritiladi. Misol uchun, avtomobil shinasini olsak, unda tekstil material (kord) 15-35% ni tashkil qiladi.

## Xom-ashyo materiallari retsepti.

1. Izopren kauchuk– 30 kg
2. Oltinugurt – 0,7 kg
3. Tiuram – 0,6 kg
4. Tiazol – 0,5 kg
5. Oqartiruvchi – 1 kg
6. Paraffin – 1 kg

7. Niozon – 0,9 kg

8. B'or – 10 kg

9. Kaolin – 42 kg


10. Moy – 13,3 kg

## IZOPREN KAUCHUK

Tabiiy kauchukning yuqori elastikligi va boshqa qimmatli texnikaviy xossalari, uning stereoregulyar (fazoviy tartibli) tuzilishi va yuqori molekulyar massasi tufaylidir. Shunnng uchun ham olimlar tabiiy kauchukka o'xshash bo'lgan sintetik stereoregulyar kauchuklarni olish ustida ko'p ishladilar.

1950 yilda A. A. Korotkov rahbarligidagi bir gruppа Sovet olimlari izoprenni maxsus katalizatorlar (triizobutil alyumniy va titan (IV) xloriddan hosil bo'ladigan kompleks) ishtirokida polimerlash yo'li bilan stereoregulyar tuzilishga ega bo'lgan sintetik izopren kauchuk (SKI) ni olishga muvaffaq bo'ldilar.

Hozirgi vaqtda tarkibida 95~98% sis 1,4 zvenolarini tutgan (tabiiy kauchukning 98% sis 1,4 zvenolari bor), tuzilishi va xossalari jihatidan tabiiy kauchukka juda o'xshash bo'lgan stereoregulyar sintetik izopren kauchuk (SKI-3) sanoat masshtabida ishlab chiqarilmoqda. Uning strukturasi quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:



SKI-3 kauchugi avtomobil shinalari va boshqa rezina buyumlar ishlab chiqarishda tabiiy kauchuk o'rnida keng qo'llaniladi.

1956 yilda akademik B. A. Dolgoploskiy SKI-3 ni olishda qo'llaniladigan katalizatorlar ishtirokida divinilni polimerlab, stereoregulyar tuzilishga ega bo'lgan sis-1,4-divinil kauchuk (SKD)ni sintez kildi:

Makromolekulalarida 96% gacha sis 1,4 zvenolarni tutgan bu divinil kauchukning elastikligi tabiiy kauchuknikidan yuqori bo'lib, shina, kabel va poyafzal ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

### **Oltinugurt**

S- moddalar tarkibida erkin holatdagi bir qancha allotropik shakllarga ega bo'lgan chegaralangan termostatli moddadir. Eng ko'p tarqalgan shakli oddiy haroratga chidamli. 2-holatdagi sariq rang romb shaklidagi Kristal holatdagisi bo'lib aktandr ko'rinishga ega.

Romblik s zinchligi  $2,07 \text{ g/sm}^3$ , Erish harorati  $112,8 \text{ }^\circ\text{C}$  ga teng, u uglerod sulfide va kaichuklard oson eriydi. Sekin sovutilib erigan S B shaklida yoki monomerda to'ladi uzun sariq shakillari bor. Zinchligi: 1,96, t-119. Bu shakildagi S  $96 \text{ }^\circ\text{C}$  va undan past temperaturada beqaror va asta sekin rombli S formasiga o'tadi. Har xil xossalari modifikatsiyalangan rezinani aniqlaganda S kristall holatdava atomlari soni o'zgarmagan, S elementlar malekulasi 8 bog'li halqadan iborat. Buning o'rtacha energiyasi S-S halqada 64 shakilni hosil qiladi.

Bu ozgarish S-ni qizdirib energiyada hosil bo'ladi.  $113-160 \text{ }^\circ\text{C}$  erigan S harakati kam holida bo'ladi. Keyinchalik temperaturalari oshgan sari rangi qorayadi va qovishqoqligi ortadi.  $170 \text{ }^\circ\text{C}$ ga kelib S ning qovusqoqligi 2000 marta oshdi. Rezina aralashmalarda S tuqori dispers holatda bo'lishi kerak.

Odatda maydalangan S hususiyati (GOST127-64) texnik tavsifnomalari bo'yich ishlatiladi.

Tarkibi:

S kichik bo'lmagan ...99,9

Ortiq bo'lmagan ...0,05

Organic midda ortiq bo'lmagan ...0,06

$H_2SO_4$  nisbatan kislotamerligi ... 0,005

Maydalangan S qattiq

Maydalagich orqali keying holatga o'tkaziladi.

Tiuram- turlari: tiuram monosulfatlar (n=1) tiuramdisulfidlar (n=2) tiurampolonilfidlar ( $n \geq 3$ ) mono va disulfid eng ahamiyatlilaridir. Tiuramlar qattiq moddalar, sariqdan qizilgacha rangli organic erituvchilarda eriydi, sivda eimaydi.

Aerazol sifatida havoda portlash havfi bor. Vulkanizatsiya to'latgichi, pestiysidlar, alkogolireni davolash vositalari, disulfidlar R=H isitkichda porxlanadi.

Parafinlar-neftning to'yingan yuqori malekulyar uglevodorodlarni porofinli distillayatlarni sovitilganda kiristallanishni. Bu yengil eriydigan och rangdagi kauchuklar bilan chegaralangan miqdorda 2-3% birlashadi. Fizikaviy antiozant sifatida rezinada qo'llaniladi. Hamda rezina qorishmalarini uskuna metal qisimlarga yopishmasligi uchun ishlatiladi. Yuqori miqdorda bo'lsa rezina qorishmani yopishqoqligini va fizik-mexanik xossalarini kamaytiradi.

Moylarni yuqori malekulyar uglevodorodlardan tozalanganda petrolatum olinadi-parafin tsezere va moylar arlashmasi 50 °Cgacha.


Parafin o'rniga rizina qorishmalarida keng qo'llaniladi. Neftni qayta ishlash mahsulotlarida xlorparafinlar ham kiradi. Parafinli uglevodorodlarni xlorldan olinadigan mahsulot har xil miqdordagi xlor tarkibli 255 Cl I bor. Cl parafinlar suyuq XP-333 butadien – netril va xloropenlikauchuklar bilan yaxshi qo'shiladi. Rezina qorishmalarni qovishqoqligini kamaytiradi, hamda ular asosidagi rezinalarni soviqqa chidamliligini va elastikligini oshiradi. Cl li 70% dan kam bo'lmagan cl parafinlar qattiq XP-1100.

Umumiy kauchuklar asosida bo'lgan rezinalarda qo'llaniladi, butadien nitrol va xloropren kauchuklarda uni yonmasligi uchun.


$Fe_2O_3$  ,  $Al_2O_3$  va qum kiradi. Bo'rni mustahkamligi 2,69-2,86 zarrachalarni tuzilishi qanday ishlab chiqarishga bog'liq. Bo'r to'ldiruvchi sifatida rezina tuzilishini osonlashtiradi va rezinaga tekislik, mustaxkamlik xususiyatini beradi.

### Tiuram


Tiuram (tetrametilturamsulfid) formulasi quyidagicha:




### Tiazol



Kaptaksning (merkaptobenztiozil) formulasi quyidagicha;



Altaksning (dibrnztiozildisulfid) formulasi quyidagicha;



## Oqortirgich

Rux oksidi-zinchligi 5500-5600 kg/m<sup>3</sup> bo'lgan oq kukun rezina sanoatida qo'llaniladigan ruxoksidi zarralari o'rtacha o'lchami 0,1-0,5 MK. ZnO rezina qorishmalarida kata ahamiyatga ega: tezlatgichlarning ativatini bo'ladi. TK uchun kuchaytiruvchi to'ldirgich polimer uchun vulkanlanish agenti, kauchuklarning hamma hollardan olinganrezina uchun oq rang beruvchi va issiqlik o'tkazuvchi to'ldirgich, ko'p martali deformatsiyaga issiqlik muhitini kamaytiruvchi bo'lib hizmat qiladi.

Rezina qorishmalarda ZnO moddalari 1-2 massaviy qismi ultra to'latkich aktivaryan uchun 5% massaviy qism o'rta va sekin to'ldirgichlar uchun 10-30% massaviy qism rezina issiqlik o'tkazuvchi kuydirgich sifatida qo'llaniladi.


## Parafinlar.

Neftning to'yingan yuqori malekulyar uglevodorodlar parafinli dismulsiyalarni sovitilganda kristallanish. Bu yong'in eriydigan organdagi Kristal maxsulotdir. Erish xaroroati 50°C dan yuqori. Umumiy kauchuklar bilan juda chegaralangan miqdorda 1-3% birlashadi. Fizikaviy anilozanet tarkibida rezinalar qo'llaniladi. Tezda rezina qorishmalarini uskuna metal qisimlariga yopishmasligi uchun qotiriladi. Yuqori miqdorda bo'lsa rezina qorishmani yopishqoqligi va fizik-mexanik jarayonlarini kamaytiradi. Moylarni yuqori molekulali to'yingan uglevodorodlardan tozalaganda takrorlanib olinadi. Porafin terezin va moylar aralashmasi 50 % gacha.

## NEOZON

Neozon D guruxiga kiruvchi qo'shimchalar ko'p qo'llaniladigan qo'shimchalar bo'lib asosan issiqlikka bardoshlikni ta'minlaydi. Kimyoviy tuzilishi Fenil-β naftilamin texnik nomi Neozon D bo'lib, och kul rang rangli, kukunsimon modda, suyuqlanish harorati 105°C. Rezina aralashmaga 0,5-2 % gacha qo'shiladi.

## Formulasi



Eskirish -bu uzoq muddatda saqlangan rezina xom-ashyosi va rezinotexnik mahsulotlarning o'zgarishini tushuniladi (fizik-kimyoviy va mexanik xossalari)

Eskirishini quyidagi turlari mavjud:

1. Issiqlik ta'sirida eskirish (termik, termooksidlanish) issiqlik ta'sirida rezinani eskirishi aktiv issiqlik ta'sirida bo'ladi.
2. Utomleni - tashqi muxit asosida eskirishi- bu rezina mahsulotlarga mexanik kuch ta'sirida xamda quyosh nuri ta'sirida oksidlanish jarayonida sodir bo'ladi.
3. Oksidlanish asosida yemirlish. Oksidlanish o'zgaruvchan metallar (mis, kobalt, temir, titan, marganes) ta'sirida yemirlishini.
4. Kuyosh nuri ta'sirida yemirlish - buning natijasida rezina mahsulotlari ultrabinafsha nurlari ta'sirida eskiradi.
5. Ozon asosida eskirish. (rezina mahsulotlarining ustki qismida ta'siri natijasida eskirishi sodir bo'ladi).
6. Radiatsion eskirishi. Bunda ionli nurlar ta'sirida rezina-texnik mahsulotlari eskirish asosida bo'ladi.

Rezinaning ozon ta'sirida eskirishi. Ozon ta'sirida rezinani eskirishi, parchalanishi eng ko'p tarqalgan aktiv turlarda hisoblanadi.

Ozon rezinaning faqatgina ustki qismiga ta'sir qiladi. Ozon kauchuklarning tarkibidagi qo'sh bog' bilan ta'sirlanib ozonidlar hosil qiladi, so'ngra turg'un holatga osongina o'tadi.

1. Issiqlikdan rezinani eskirish. haroratini oshirish bilan rezinaning issiqlikdan



Eskirish ortib boradi, ammo rezinani tarkibiga qarab jarayon har xil boradi. To'yinmagan uglevodlarning eskirishi

100 °C haroratgacha bir xil bo'ladi. (NK,SKI3)

130 °C gacha -SKD, (SKM)S, SKN.

150 °C gacha -BK, SKEP, SKEPT, XSPE.

haroratga qarab eskirishga katta ta'sir vulkanlanish setkasining tabiati.

Oltinugurt va polisulfid ko'ndalang bog'lanishlar 70 °C haroratda oksidlanish jarayonini sekinlashtiradi. Yuqori haroratda vulkanizatlarning oksidlanishini tezlashtiradi, bunday holatda ular barqaror bo'lmaydi.

## **BO'R**

Tabiiy bo'r asosan 97-99 Ca CO<sub>3</sub> bunga ayrimda Fe Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> aralashgan bo'lishi mumkin zichligi 25500-2700 kg/m<sup>3</sup> donachalarining shakli asosan sferik sharsimon o'lchamlari ishlov berishga qarab o'zgaradi 5-20 mikro-metrgacha bo'ladi.

Yirik bo'laklarni maydalash orqali bo'r olinadi rezina aralashmalarini mustahkamligini, egiluvchanligini yedirilishga, yirtilishga mustahkamligini oshiradi. Rezinalarni silliqqligini oshiradi butadien stirol kauchuklarga qo'shilganda mustahkamlikni 10 mPa dan oshiradi rezina aralashmalarga ishlov berishdagi ko'rsatkichlarni oshiradi.

## **Kaolin (To'ldirgich)**

Kaolinlar rezina qorishmalarini ingredientlari bo'lib keng ko'lamda ishlatiladi. Kaolin ba'zi turlari faol to'ldiruvchilardir, bundan tashqari ular rezina qorishmalarga ma'lum maxsus xususiyatlarni ma'lum qiladi, masalan ular yog' turishini yuksaltiradi va rezina qorishmaga birga kiritilganda regeneratni boshqa ingredientlar bilan aralashishini yengillashtiradi. Kaolinlar tezlatishni va eskirishga qarshilarni faol adsorbiraydi. Buni qorishmalar resepturasini tuzishda inobatga

olish lozim. Kaolinlar arzon va erishsa bo'ladigan material. Kimyoviy tarkibi bo'yicha  $Al_2O_3 \cdot 2SiO_2 \cdot H_2O$  yaqin bo'lgan bir turli material olish uchun kaolin ozuqlantiradilar. Kaolinlar suvda oson disperslangan bo'is ularni ozuqalantrish uchun distillash metodi qo'llanilishi mumkin bu metodda yirik qo'shimchalarni bartaraf qiladi, hamda kaolin fraksiyaga zarrachalar katta-kichikligiga qarab bo'laklarga imkon beradi. Kelib chiqishi joylari turli bo'lgan kaolinlar ba'zi bir fizik jixatlar bilan farqlaydi. Ukrain kaolin zichligi 2,6-2,67 g/sm<sup>3</sup>, Eleninsk kaolini 2,47-2,54 g/sm<sup>3</sup>. Sintetik kauchuk asosidagi rezina qorishma uchun optial dozirovka 20-30 xajmni, kaolin uchun 100 xajmni tashkil etadi. Kaolin bilan to'ldirilgan rezina yurtilishi kam, qarshiligi bilan xarakterlanadi. Kaolin zarrachalarini inizotroplogi tufayli. Namligi 2-3% bo'lgan kaolinlarni rezina qorishmasiga kiritilganda ularni sintetik kauchukdagi dispersgiranishi kuchayadi va vulkanizasiya mexanik jixatlari deyarli kuchayadi. Kaolinlar rezina qorishmada texnik uglerodni o'rmini bosadi. Butadien-stirol kauchuk asoslangan qorishmalarda kaolin texnik uglerod bilan kombinirlanib qo'llanishi ayniqsa samaralidir: kaolin kiritilganda rezina ko'p marotabali deformatsiyalarda vayron bo'lishiga yuqori qarshilikka ega bo'ladi. Bu xolda kaolinlar qorakuyani kauchukda dispersgiranishini yengillashtiradi, uni zarrachalarini aglomerasiyasini kamayishiga sabab bo'ladi.

### **MOY DPF (PLASTIFIKATOR)**

Neftni qayta ishlash maxsulotlari - yumshatgichlar. Neftni Qayta ishlashda chiqadigan moddalar yumshatgichlarning eng ko'p guruxini tashkil qiladi va shina, rezinatexnik buyumlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Bular: mazut, gudron, rubraks, moylar, vazelin, parafin va x.k.

DBF plastifikatorlari uskunaga texnologik jarayon almashtirish uchun qo'llaniladi. Ular quyidagi texnologiyaga javob berish kerak:

- Kauchuk bilan yaxshi erishadi.
- Ishlab chiqarish jarayonida ximoyaviy

- Kam uchuvchi.
- zaxarsiz.
- Mo'tadil qovushqoq.

Rezina aralashmalari plastifikatorlari. Polimerlarni modifikatsiyalashda (xossalarini) asosiy usullardan biri bu plastifikatsiya usulidir. Bu jarayonning ma'nosi polimer xossasini uning quyi molekulali birikmalar - plastifikatorlar qo'shilishi yordamida o'zgartirishdir. Buning natijasida sistemaning qovushqoqligi, molekulani egiluvchanligi o'zgaradi va qayta ishlashda, eksplutatsiya qilishda elastik va plastikligini oshishiga olib keladi.

Rezina tayyorlashda plastifikatorlar ikki gruppaga bo'linadi: haqiqiy plastifikatorlar - bular kauchuklar bilan mos keladigan va bir-biri bilan aralashganda qovushqoqlik kamayish, shishalanish temperaturasi pasayishi va elastik xossasi yaxshilanishi hamda sovuqqa bardoshligi oshishini kuzatish mumkin.

Qayta ishlash jarayonini osonlashtiruvchi, oquvchanlik temperaturasini pasaytiruvchi, rezina qorishmasini qovushqoqligini kamaytiruvchi, lekin sovuqqa bardoshligiga ta'sir ko'rsatadigan moddalarni yumshatuvchi deb ataladi.

Yumshatgichlar rezina qorishmada ingredientlarni bir tekisroq taqsimlanishini ta'minlaydi, aralashtirishda qizishni kamaytiradi shu bilan vaqtdan oldin vulkanlanishni oldini oladi, elektr quvvatini xarajatini kamaytiradi rezina qorishmalari tayyorlashda va unga ishlov berishda, cho'kishni kamaytiradi, kalandrlashda, va shprishlashda formalashni yaxshilaydi, xamda qoliplarda vulkanlanishda, vulkanlanish boshlanishida rezina qorishmalari yumshoqlanish xaroratini pasaytiradi. Yumshatgichlar rezina qorishma komponentlari bilan reaksiyaga kirishish oqibatida vulkanlanishga tasir ko'rsatadilar, vulkanizatlarning eskirishi va fizik-mexanik xossalariga xam. Yumshatgichlarni qo'llash (ishlatish) rezina va rezina qorishmalarni xossalarini o'zgartirishning eng qulay usuli.

Ko'p miqdorda aromatik uglevodorodga ega moylar, ko'p miqdorda parafin uglevodorodlariga ega moylarga nisbatan SK(M)S va SKD kauchuklari bilan mos keladi.

Odatda qo'llaniladigan yumshatgichlarning ko'p qismi polisulfid kauchuklari bilan mos kelmaydi. Yumshatgich sifatida xilma-xil organik moddalar qo'llaniladi. Ularni quyidagi gruppalariga bo'lish mumkin.

1. Neftdan olinadigan moddalar;
2. Tosh ko'mirga qayta ishlov berishdagi moddalar;
3. O'simlik moddalar;
4. Moyli kislotalar;
5. Sintetik yumshatgichlar.

## **1.2. Maxsulot olishning texnologik jarayonini nazariy kimyoviy, fizikaviy- kimyoviy, texnologik asoslari**

Kauchuk va rezina aralashmasining muhim texnologik xossalariga: plastoelastik va adgezion (yopishqoqlik) hamda, rezina aralashmasi uchun vulkanizatsiyalanish hossalari kiradi.

Aralashtirish va shakllantirish jarayonida kauchuk va rezina aralashmasini o'zini qanday tutishini baholash uchun eng muhim ko'rsatkich bu plastik va yuqori elastik deformatsiyalarining umumiy deformatsiyada bir-biriga nisbatidir. Boshqacha qilib aytganda, plastoelastik xossasidir.

Materialning qayishqoqligi deb, osonlik bilan deformatsiyaga uchrashi va shaklini deformatsiyalovchi kuch olingandan keyin saqlab qolish xususiyatiga aytiladi. Elastik xossasi deb, materialda qayta deformatsiya sodir bo'lishi yoki boshqacha qilib aytganda, elastik tiklanmoqqa aytiladi. Plastik xossasining harorat ta'sirida o'zgarishi uni termoplastikligini va materialni shakllanish qobiliyatini ko'rsatadi.

Rezina aralashmasini vulkanizatsiyalash jarayonida plastik xossasini kamayishini va yuqori elastik xossasini ko'payishiga olib keladi. Plastoelastik xossasini harorat ta'sirida o'zgarishi bu aralashmani vulkanlanishga bog'liqligidan dalolat beradi.

Rezina aralashmasini qayta ishlash jarayonida va uni saqlash davrida yuqori haroratda kauchuk bilan vulkanlovchi reagent orasida sodir bo'ladigan o'zaro reaksiya noma'qul plastoelastik xossasini o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Bu o'zgarishni *vaqtidan ilgari vulkanizatsiyalash yoki podvulkanizatsiya* nomi bilan ataladi.

Kauchuk va rezina aralashmalarini plastoelastik xossalarni quyidagi usullar bilan baholash mumkin: ikki yuza oraligida siqish natijasida namunaning balandligini o'zgarishi bilan; ikki yuza (qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas) oralig'ida deformatsiya siljuvchanligiga qarshiligi bo'yicha; kalibrlangan teshik orqali bosim ostida oqish tezligi bilan; qattiq uchlikni yuklash orqali uni materialga botish tezligi orqali.

Plastoelastik xossalarni aniqlash usullari standartlashtirilgan. Shuningdek, rezinaning qattiqligi (bu ko'rsatkich asosiy fizik va ekspluatatsion xossalardan biridir) va bu orqali rezina aralashmalarining sifati to'g'risida fikr yuritish mumkin. Chunki qattqlik vulkanlovchi modda, to'ldirgich va plastifikatorlar qanday miqdorda olingani va aralashgani, hamda aktiv tezlatkich moddalar (tiazol, tiuram) qo'shish va ular miqdorini oshirish bilan rezinaning vulkanlanish darajasini ko'paytirish mumkinligi asosiy xarakterlovchi ko'rsatkichlardan biridir. Qattqlik faqat vulkanizatsiya qilingan rezina namunalari uchun aniqlanadi, uning miqdoriga qarab esa rezinaning elastikligi haqida ham ma'lum tushuncha olish mumkin.

Rezina buyumlarining qattiqligi ularga juda qattiq har xil shakldagi boshqa bir uchlik materialning botish chuqurligi bilan o'lchanadi. Sinash ishlarini bajarish uchun ishlash printsiplari materialni botirishga va botish chuqurligini aniqlashga (ISO, TSHM-G) yoki prujinaning deformatsiyalanish qattiqligini topishga asoslangan (SHOR-A) qattqlik o'lchagich asboblardan foydalaniladi.

Shuningdek fizik-mexanik ko'rsatkichlarga rezinaning yeyilishiga sinash, ya'ni ishqalanish va yemilish eskirish (iznos) yelimlab biriktirilgan rezina metall orasidagi bog'lanish mustahkamligini ajratish usuli bilan aniqlash va boshqalar.

### **Rezina ishlab chiqarishning asosiy jarayonlari.**

Ko'p rezina buyumlarni uning konstruksiyasini murakkabligidan qat'iy nazar, odatda umumiy texnologiya bo'yicha tayyorlanadi: yarim fabrikatni tayyorlash; vulkanizatsiya qilish.

Yarimfabrikat paralel potoklarda amalga oshiriladi, bular kauchuk va ingredientlarni tayyorlash, tortish, qorishma tayyorlashdan iborat.

Ayrim texnologik operatsiyalar mexanizatsiyalashtirilgan potoklarda yoki avtomatlashtirilgan sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Shunday qilib, umumiy texnologik ishlab chiqarishga quyidagi jarayonlar kiradi:

- xom-ashyoni qabul qilish va uni saqlash;
- kauchuk va ingredientlarni tayyorlash va ularga ishlov berish;
- xom-ashyoni tortib olish va ularni dozirovka qilish;
- rezina aralashmasini qorish;
- rezina aralashmasini shakllash;
- kalandrlash, matolarga kalandr yordami bilan rezina qoplash;
- shpritslash;
- rezina zagatovkalarini va matolarini bichish;
- rezina yelimini tayyorlash va matolarni rezinalash;
- murakkab buyumlarni yig'ish;
- rezina aralashmasini vulkanizatsiyalash.

Rezina ishlab chiqarish zavodlari og'ir uskunalar bilan jihozlangan ko'p miqdorda elektroenergiya, issiqlik, gidravlik energiyalar talab qiladi. SHuning uchun ishlab chiqarishni shunday tashkil qilish kerakki, unda ekspluatatsiya xarajatlarini minimumga olib kelsin.

### **Kauchuklarni plastikatsiyalash.**

Rezina buyumni tayyorlashda tabiiy va sintetik kauchuklar hamma vaqt plastoelastiklik xossasi bo'yicha talabga javob berolmaydi.

Kauchuklarni elastik xossasi rezina buyumlari uchun juda muhim, lekin bu ko'rsatkich rezina aralashmasini tayyorlashda, ya'ni qayta ishlash jarayonida ishlov berishda salbiy rol uynaydi, chunki sarflanayotgan mexanik kuchning unumdorligi qaytar deformatsiya hisobiga kamayadi. Mexanik va issiqlik ta'sirida kauchukning plastikligi ko'payishi mumkin. Texnologik jarayon va bu hodisa natijasida kauchukning plastikligi oshishi, qovushqoqligi kamayishi va elastik tiklanishi (elasticheskoe vosstanovlenie) **plastikatsiya** deb ataladi. Shuning uchun, rezina aralashmasini tayyorlash kauchuklarning aniq bir plastik xossaga ega bo'lgan ko'rsatkichidan foydalanishni taqozo qiladi.

### **Rezina aralashmasini (qorishmani) tayyorlash.**

Oldin aytilganidek, rezina aralashmasi murakkab ko'p komponentli sistema va uning tarkibiga kauchuk va har xil ingredientlar kiradi va ular kauchuk massasida bir tekisda taqsimlangan bo'ladi. Rezina aralashmasini olish uchun kauchuk va ingredientlar bir jinsli aralashma hosil qilguncha aralashtiriladi.


Aralashtirish jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo'lishi mumkin:

- qattiq komponentlarni maydalash;
- komponentlarni kauchukka kiritish;
- aglomeratlarni disperslash;
- qorishtirish.

Komponentlarni aralashtirish mexanizmiga ko'p komponentli sistemaning deformatsiyalanishi deb qarash mumkin. Bu deformatsiya natijasida aralashayotgan materiallarning qalinligi tobora kamayib borishi komponentlararo yuza ta'sirining oshib borishiga olib keladi. Natijada, shunday xolatga erishish mumkinki, qatlam qalinligi disperslanayotgan faza zarracha o'lchamiga yaqinlashadi.

Rezina aralashmasining sifati komponentlarni hajmda bir tekisda taqsimlanishi bilan belgilanadi.

Rezina aralashmasini tayyorlash quyidagi rasmda keltirilgan.




1- rasm

1, 12, 16, 20, 24, 26-28, 33, 34, 38, 39, 44 – har xil materiallar uchun taqsimlovchi bunkerlar; skrebka tipidagi to'ldiruvchi; 3, 7, 22, 25, 32, 37, 41, 46 – ingredientlar uchun avtomatik tarozilar; 5 – rezina aralashtiruvchi; 6 – tsirkulyatsion sistema; 10 – shesternyali nasos; 13, 17 – vibroshnekli ta'minlovchi; 35, 36, 40, 45 – vintli ta'minlovchi; 42 – granula holatdagi kauchuk uchun idish; 49 – valets va h.k.

**Rezina aralashmasini (qorishmasini) shakllash.**

Rezina buyum olish uchun rezina qorishmasiga aniq bir shakl berish kerak, ya'ni shakllantirish zarur.

Shakllanish asosan: kalandrlash, ekstruziya (shpritsovanie), presslash, bosim ostida quyish usullari bilan amalga oshiriladi. Rezina ishlab chiqarishda ko'pincha shakllash jarayoni vulkanizatsiya jarayoni bilan birga olib boriladi. 2 - rasm





### **Rezina buyumlarini vulkanizatsiya qilish.**

Turli rezina buyumlarini ishlab chiqarishda vulkanizatsiya katta rol o'ynaydi. Vulkanizatsiya jarayonida rezina qorishmasini plastikligi kamayadi va asta-sekin elastik xossasi oshib boradi, fizik-mexanik xossasi yaxshilanadi. Rezina aralashmasi tarkibida vulkanizatsiya qiluvchi moddalar va ular yuqori haroratda kauchuk bilan reaksiyaga kirishadi. Temperaturaning ta'sir vaqti oldindan belgilab olinadi. Vulkanizatsiya har xil «qozon» larda amalga oshiriladi, ular **vulkanizator**lar deb ataladi.

Organik sintez uchun zarur bo'lgan to'yingan uglevodorodlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

- a) quyi molekulyar parafinlar.
- b) Yuqori molekulyar parafinlar.

**Quyi molekulyar parafinlar.** Metandan butangacha bo'lgan uglevodorodlar oddiy sharoitda gaz, pentan esa quyi haroratda qaynaydigan suyuqlikdir. Metan qiyin siquluvchan gaz, qolgan birikmalari esa past haroratda bosim ostida suv bilan oson kondensatlanadi. Quyi molekulyar parafinlar suvda va polyar erituvchilarda yomon eriydi, lekin qattiq adsorbentlarda aktivlashtirilgan ko'mirda yaxshi yutiladi. Molekulyar massalari ortib borishi bilan adsorbanish ham ortib boradi. Ularning bunday xususiyatidan quyi parafinlarni bir-biridan ajratishda foydalaniladi. Quyi molekulyar parafinlarning havo bilan aralashmasi portlovchi aralashma hisoblanadi. Shuning uchun quyi parafinlar bilan ishlaganda ventilyatsiyaga alohida e'tibor berish lozim. Zaxarliligi yuqori emas, lekin doimiy ishlaganda ular bilan hushyor bo'lish lozim. Chunki doimiy nafas olinganda narkotik singari ta'sir etishi mumkin. Quyi molekulyar parafinlardan metan, izopentan, normal va izobutan organik sintez uchun keng ko'lamda qo'llaniladi.


**Yuqori molekulyar parafinlar.** Yuqori molekulyar parafinlarning organik sintez jarayonlari uchun ahamiyati katta. Molekulasi tarkibidagi uglerod atomlari soni  $S_6-S_{16}$  gacha bo'lganlari suyuq, undan yuqorisi esa qattiq moddalardir.

Normal parafinlarning suyuqlanish harorati tarmoqlangan parafinlarnikiga nisbatan yuqori, shuningdek, karbomid bilan kristall adukt hosil qiladi. Bunday kristalda 10 molekula uglerodga 8 molekula  $(\text{NH}_2)\text{CO}$  to'g'ri keladi. Shuningdek n-parafinlar seolitlarning eng mayda g'ovaklarigacha adsorbilanadi. Ularning bunday xususiyatidan aralashmalar tarkibidan ajratib olishda foydalaniladi. Neft mahsulotlari tarkibidan n-parafinlarni asosan yumshoq va qattiq parafinlar holida ajratib olinadi. Yumshoq parafinlar  $40^\circ\text{S}$  gacha bo'lgan haroratda suyuqlanadi, ularga molekulyar zanjiri  $\text{S}_{11}\text{--}\text{S}_{20}$  bo'lgan uglevodorodlar kirib, qaynash harorati  $200^\circ\text{S}$  dan  $320\text{--}350^\circ\text{S}$ . qattiq parafinlarni suyuqlanish harorati  $50^\circ\text{S}$  dan yuqori bo'lib, molekulyar zanjirda  $\text{S}_{20}\text{--}\text{S}_{35}$  dan iborat uglevodorodlar saqlaydi. Qaynash harorati  $300\text{--}350^\circ\text{S}$  dan  $450\text{--}500^\circ$  gacha.

### ***Quyi parafinlarni ajratish***

Quyi parafinlarning asosiy manbalari tabiiy gaz, yo'ldosh gazlar, gaz kondensat, neftni qayta ishlash zavodlarida hosil bo'ladigan gazlardir. Tabiiy gaz tarkibida uglerod (IV)-oksidi, azot, geliy bo'lib, ulardan gazni yuqori bosim ostida sovitiq so'ng separatda suyuq kondensat va gaz holida ajratib olinadi. Yo'ldosh gazlar neft tarkibida bo'lib, ularni separatorda ajratib olinadi. Neft tarkibida qolganlarini uchuvchan komponentlar holida haydab olinadi.

Rezina aralashmasini tayyorlash quyidagi rasmda keltirilgan.



3 - rasm

1, 12, 16, 20, 24, 26-28, 33, 34, 38, 39, 44 – har xil materiallar uchun taqsimlovchi bunkerlar; skrebka tipidagi to'ldiruvchi; 3, 7, 22, 25, 32, 37, 41, 46 – ingredientlar uchun avtomatik tarozilar; 5 – rezina aralashtiruvchi; 6 – tsirkulyatsion sistema; 10 – shesterniyali nasos; 13, 17 – vibroshnekli ta'minlovchi; 35, 36, 40, 45 – vintli ta'minlovchi; 42 – granula holatdagi kauchuk uchun idish; 49 – valets va h.k.

### 1.3 Texnologik jarayonning asosiy tasnifi va parametrlari

Rezina qorishma tarkibiga kiruvchi ingidirendlar korxonada, temir yo'l yoki yuk avtomobilga keltiriladi.

Hom-ashyoni sifatini korxonada laboratoriyalarida tekshiriladi. So'ngra kerakli miqdorda tortiladi. O'lchangan ingidirendlar rezina aralashma 4 so'ngra 5 ga 20 m/soat mobaynida qorishma bir hilda aralashtiriladi aralashtirish davomida qorishmani harorati bittasida 60°C ikkinchisida 65°C bo'ladi. Yahshilab qorilgan aralashma suvli vannaga 6 sovitiladi sovitilgan rezina qorishma qizdirish stelajlariga(7) 4-8 soat tindiriladi.

Tindirilgan rezina qorishma qizdirish valslarida (8) 70<sup>0</sup>C gacha qizdiriladi va yumshatiladi. Yumshagan qorishma shpris mashinaga uzatiladi (9) shpris mashinaning ichidan flera orqali diametrik 40 mm gacha bo'lgan rezina shunur chiqadi. Shunur vanna (10)da sovitiladi sovitilgan rezina qorishmadan tayyorlangan shunur pichoq (11) bilan kesilib 1 metr uzunlikgacha kesiladi, kesilgan shunurlar press qolibiga iziga joylashtiriladi so'ngra press qolib pressning (12) qizdiruvchi plitasiga joylashtiriladi siqish bosimi 150 t gacha ko'tariladi vulkanlanish temperaturasi 185-190 bo'ladi (13) kleylash stoliga uzatiladi. Presslash jarayoni tugagandan so'ng tayyor mahsulot kombdan yechiladi mahsulot abmoylarga tozalanib tayyor mahsulot sterjenlarga taxlanadi. 4 - rasm



## Texnologik jarayon

Kauchukni tayyorlash termik ishlov berish kompressida SK va TK bug' bilan tasir o'tkaziladi. Bu bolan kauchukka ishlov berish davomiyligi yozda 12-18 soat qishda 24-36 soat bo'ladi. Kauchuklarni tekshirib chiqiladi. kerak bo'lganida tozalaniladi pichoq bilan kesilib tayyorlanadi. Qattiq kauchuklarni valslarda, rezina aralashtirgichlarda plastikatsiya qilinadi. Texnik tarozida ingidirentlarni va

kauchuklarni tortiladi. Tarozida tortilgan ingidirebdlar qog'oz paketlarida yoki idishlarda saqlanadi.

Reglament bo'yicha yoziladi. Rezina qorishmasi uchun ingidirendlar tayyorlangan namunalar bilan yuboriladi. Suyuq ingidirendlar tozalanadi va turbaprovod orqali rezina aralashtirgichlar regulyarga yuboriladi. Valsdagi rezina qorishmalarini tayyorlash 3 ta bosqichga bo'linadi. [16]

1. Aralashtirish uchun kauchukni tayyorlash.
2. Ingidirentlarni yuklash
3. Rezina qorishmani aralashtirish va kesish vallarini ishlatishni vallar orasidagi masofa o'rnatiladi so'ngra vallar kauchukni yuklaydi va qovushqoqligini berish uchun ishlov beriladi. Vallar orasida bir tekis kauchuklarni taqsimlagandan so'ng aniq tarkib bilan brikmalar yuboriladi. 1-bosqichda va ingidirendlarini yuklashda qavatida ingidirend qayta yuklanadi. Rezina qorishmani qisman valdan kesib aralashtiriladi.

Ingidirentlar oldingi valga farqli masofada aniqroq hamda valni uzunligi bo'yicha bir tekis yuklanadi. Tayyorlov trakda ishlab chiqarilgan rezina qorishma yarim mahsulot xisoblanadi. Qalinligi 8-10 mm list sifatida tayyorlangan va valdan hamda rezina qorishmalari ishlab chiqariladi.

Qovushqoqligi darajasi bo'yicha: yumshoq o'rtacha va yuqori qovushqoqlik bo'ladi. Shakillangan va shakillanmagan rezina texnik buyumlari rezina shunuri, manjetlar, texnik shunurlar uchun mo'ljallangan holida ishlab chiqariladi.


Ingidirentlar yuklash tarkibi:

1. Oltinugurt va tezlashirgich rezina qorishmasiga alohida yuklanadi tayyor bo'lganida tezlashirgichlar va yakunuda S qo'shiladi
2. Qorishtirish jarayoni jonlanishda boshlanishda vulkanlanish tezlatgichlarini eskirishini oldini olish aktivator va disjernerlar qo'shiladi

3. Qurum turiga qarab birinchi navbatda yumshoq keyin esa qattiqroq qurum yuklanadi.

4. Yumshatgich ko'p bo'lmagan holda tayyor bo'lganda qo'shiladi

5. To'ldirgichlar ko'proq miqdorda bo'lsa ularni yuklash va bir tekis taqsimlanadi. Ingidirentlarni vallar orasidan to'kilib qolgan ingidirendlar yana vallarga yuklanadi. Yuklanish davomida vallar orasidagi masofa kengaytiriladi. Chunki ingidirentlarni taqsimlash olib boriladi va normal darajada turishi uchun vallardan kesib olish va aralashtirish valli namunalari bir-biriga uyg'un ravishda aylanuvchi vallardan iborat qurilmadir. Vallarni gorizantal o'qlari o'zaro qurollaridir ularning dastlabki simenaga jamlangan pachimniklarga talib turadi va bunda vallar umumiy yoki alohida elektr aldigidlari yordamida o'tkazgichlar orqali aylantiriladi. 5- rasm



#### Asosiy parametrlar

1. Chervyakli mashina uzluksiz xarakatlanuvchi mashina hisoblanib, ish samarasi yuqoriligi va har tomonlama unversialligi bilan ajralib turadi hamda rezina sanoatining asosiy mashina turiga kiradi.

U rezina qorishmasidan turli profildagi va uzunlikdagi yarim tayyor mahsulotlar olishda, turli kauchuklarni plastikasiyalashda, regenerat va kauchuklardan namlikni siqib chiqarishda, kabel, shlanklarni rezina bilan qoplashda qo'llaniladi. Chervyakli mashinalarni rezina aralashmalariga ishlov berish uchun qo'llash

o'tgan asrning 70 yillariga taqaladi. 1 patent "M.Grey" xamda "Shovl Indan" firmalariga taalluqli.

Chervyakli mashina 1 chervyakli va 2 chervyakli bulishi mumkin. 2 chervyakli mashinalar asosan qattiq kauchuk va rezina qorishmalariga ishlov berishga mo'ljallangan bo'ladi.

Rezina qorishmasiga qayta ishlov berish uchun mo'ljallangan chervyakli mashinalar turi va o'lchami 1441 -76 sonli Davlat standarti bo'yicha aniqlanadi. Mazkur Davlat standartiga asosan quyidagi turdagi chervyakli mashinalarda rezina qorishmalariga ishlov beriladi:

MChX - qorishma sovuq xolatda uzatiluvchi chervyakli mashinalar;

MChT - qorishma issiq xolatda uzatiluvchi chervyakli mashinalar;

3. MChTV - qorishma issiq xolatda uzatiluvchi vakumli chervyakli mashinalar.

Chervyakli mashinaning asosiy tavsifiy talabi uning diametridir. U 32 mldan 600 mlgacha bo'lishi mumkin.

2. Rezina qorishmalarini chervyakli mashinaga (mashina turiga bog'liq ravishda) valsdan lenta shaklida kesilib, qizdirilgan yoki sovutilgan xolatda uzatiladi.

MChT turidagi chervyakli mashinaga rezina qorishmasi plastik bulishi lozim, shuning uchun qorishma avval valslarda rezina qorishmasi tarkibiga bog'liq xolda ma'lum rejimda qizdirilib, lenta shaklida 50°C gradusdan kam bo'lmagan xaroratda uzatiladi. Rezina aralashtir- gichlardan uzatilgan rezina qorishmasi esa 80°C gradus va undan yuqori gradusli xaroratda bulishi zarur. MChT turidagi chervyakli mashinani ishga tushirishdan oldin mazkur mashina korpusi g'ilofiga par (suv bug'i) berilib 10-15 minut davomida qizdiriladi. Bunday avvaldan qizdirish jarayoni mashinadagi rezina qorishmasi plastikligini oshirib, uning elektrmotoriga tushuvchi yukni kamaytiradi, mashinani alohida qismlaridagi qayta kuchlanishni bartaraf etadi, jizozdan foydalanish uchun yoqimli sharoit yaratish standartiga

asosan quyidagi turdagi va jarayonni boshqarishga sarflanuvchi ishlab chiqarishga ishlatilmaydigan vaqtni qisqartiradi.

MChX turidagi chervyakli mashinaga rezina qorishmasi sovuq xolatda uzatiladi. Sovuq xolatda beriladigan rezina qorishmalari  $15^{\circ}\text{C}$  past bo'lishi mumkin va chervyakli mashinada  $60^{\circ}\text{C} - 70^{\circ}\text{C}$  ga yetadi. [15-16]

